

## Galdagi hisobot taqdimoti

2019 yil 8 yanvar kuni “Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti” fakultetida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkillashtirish, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, iqtidorli talaba yoshlar bilan ishlash, ilmiy-tadqiqot natijalarini o'quv va ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish bo'yicha 2018 yilda amalga oshirilgan ishlar muhokamasi bo'lib o'tdi. Unda institut ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor prof. T.Sultonov, ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i prof. Sh.Imomov va fakultet jamoasi ishtirok etdi. O'tgan yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan fakultet dekani prof. A.Isaqov hisobot berdi.

Fakultet dekani hisobot yilida erishilgan yutuqlar to'g'risida gapirar ekan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2019 yil mamlakatimizda “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” deb e'lon qilinishi munosabati bilan oldimizda ulkan rejalar turganligi hamda uni o'z muddatida va sifatli amalga oshirishda fakultetning har bir a'zosi vijdonan yondashishi zarurligini alohida ta'kidlab o'tdi. Shu bilan birgalikda institutning 2018 yil ilmiy-tadqiqot ishlarining rejasini bajarishda sustkashlikka yo'l qo'ygan professor-o'qituvchilarni tanqid qildi.

